

RAVSHAN RAJABOV

# JA'HON TARIXI (QADIMGI SHARQ)

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim  
vazirligi tomonidan 5120300 – Tarix (jahon mamlakatlari  
bo'yicha) ta'lim yo'nalishi, 5110600 – Tarix o'qitish metodi-  
kasi ta'lim yo'nalishi talabalari (o'quvchilari) uchun darslik  
sifatida tavsiya etilgan*



**UO‘K: 94(100) (075)**

**KBK: 63.3 (0)**

**R-17**

**Rajabov, Ravshan**

Jahon tarixi / Ravshan Rajabov, – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 448 b.

ISBN 978-9943-20-485-0

O‘quv darsligi jahon tarixi fanining yangi dasturi asosida yozilgan. Ushbu o‘quv darsligi 2015-yildagi nashri asosida qayta ishlanib, fanining yangi ma’lumotlari bilan to‘ldirilgan. Darslikda qadimgi Sharqda ilk davlat va jamiyat, madaniyatning paydo bolishi, gullab-yashnashi va so‘nish davri – milodiy V asrgacha hamda qadimgi Sharq tarixiga oid asosiy voqea-hodisalar yoritilgan. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalarining iqtisodiy-ijtimoiy tuzilmalari, siyosiy davlat tashkilotlari, madaniyatlarining asosiy sohalari tahlil qilinadi. Darslik oliy o‘quv yurtlari tarix fakultetlari talaba va o‘qituvchilari, maktab, litsey va kollej o‘quvchilariga hamda jahon tarixi va madaniyati tarixini o‘rganuvchilarga mo‘ljallangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 5120300 – Tarix (jahon mamlakatlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi, 5110600 – Tarix o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishi talabalari (o‘quvchilari) uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.

**UO‘K: 94(100) (075)**

**KBK: 63.3 (0)**

**Taqrizchilar:**

G. TEMIROV,

tarix fanlari doktori, NavDPI «Tarix o‘qitish metodikasi»  
kafedrasi professori.

M.O. OLTINOV,

tarix fanlari doktori, NavDPI «Tarix o‘qitish metodikasi»  
kafedrasi professori.

X.R. QURBONOV,

tarix fanlari nomzodi.

ISBN 978-9943-20-485-0

© Ravshan Rajabov, «Jahon tarixi». «Yangi asr avlodi», 2018-yil.

Учебник подготовлен на основе новой примерной программы всемирной истории. Учебник переработан на основе издания 2015 года и дополнено новыми данными исторической науки. Учебник Древний Восток Изложение материала доведено с IV тысячелетие до нашей эры до V века н.э Учебнике дано систематическое изложение основных событий Древнего Востока начиная зарождения первых государств Востока прослеживается происхождение и расцвет цивилизации древнего мира, ее экономических и социальных структур, политических и государственных институтов, основных сфер культуры древнего Востока.

Для студентов вузов, колледжей и лицеев, изучающих всеобщую историю и культуру, может быть интересно широкому кругу читателей

The textbook is written on the basis of the new program of ancient history. This training manual processes, based on the year 2015 edition, filled with new scientific data. It consists of two courses: ancient the Easta material statement it is finished about IV millennium B.C. till V century. Textbooks the regular statement of the cores event ancient the east is given, beginning origin of the first states of the East the origin and blossoming of a civilization of the ancient world, its economic and social structures, political and state institutes, the basic spheres of culture of the ancient world is traced. For students of high schools, colleges and the lyses studying general history and culture, the life can is interesting to a wide range of readers.

# *I BOB*

## **QADIMGI SHARQ**

*Tarixiy voqea-hodisalarni emas, tarixiy davrlar  
mazmun-mohiyatini o'rganing*

### **KIRISH**

- 1. Qadimgi Sharq aholisi.**
- 2. Qadimgi Sharq jamiyati va davlatchiligi.**
- 3. Qadimgi Sharqda yer egaligi.**
- 4. Qulchilik.**
- 5. Qadimgi Sharq jamoasi.**

Insoniyat sivilizatsiyasining poydevori Sharqda qo'yildi. Sharq sivilizatsiyasi maftunkor, oziga xos betakror, ulug'vor bo'lib, uning kuch-qudrati, hayotbaxsh mazmun-mohiyatini faqatgina Sharqda yashagan insongina atroflicha anglab yetadi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi insoniyatning qadriyatlarini yaratdi, bu qadriyatlar hayotiyiligi, mazmunan boyligi va boqiyiligi bilan hanuzgacha inson hayotining mazmun-mohiyatini belgilab kelmoqda. Bu sivilizatsiya uzoq ming yilliklar davomida tabiat qo'ynida uyg'un yashab, o'z an'analari, turmush tarzi, urf-odat va rasm-rusumlarini shakllantirib, ana shu qadriyatlar asosida yashadi. Insoniyatning keyingi sivilizatsiyalari qadimgi Sharqning til-yozuv, san'at, jamiyat-davlat, shaharsozlik, e'tiqod va ma'naviy qadriyatlarini o'zlashtirib oldi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasiga xos xususiyatlar: 1. An'anaviylik – turmush tarzi va ijtimoiy tuzilmalarning hayotiy shakllarini qayta ishlab chiqarish va saqlash. 2. Inson hayoti faoliyatining barcha shakllarining o'ta barqarorligi, sokinligi, bir maromdagi va turli xillikning zaifligi. 3. Tabiat, ilohlarning kuch-qudratiga, irodasiga ishonch, kuchli e'tiqod, o'z faoliyati, taqdirini oldindan belgilab qo'yilishiga ishonish. 4. Insonning ma'naviyati, iroda kuchini, dunyoni bilish va shu asosda o'zgartirishga emas, balki mukammallik, ideallikka intilish, an'analarga sodiqlik, mavjud hokimiyatga

ishonch va unga tayanish, tabiat bilan mistik yaxlitlik, ichki ma'naviy hayotga bor vujudini jalb qilish. 5. Shaxsiy individuallik jamoa fikridan keyin turadi. Ijtimoiy hayotning jamoaviy birdamlikka yo'naltirilgani. 6. Davlat hokimiyatining, jamiyat hayotining barcha sohaları uchun mas'ulligi. Jamiyatning iqtisodiy asosi jamoa mulki, davlat mulkiga asoslangani. Xususiy mulkning qonun bo'yicha to'la himoyalanganmagani.

Qadimgi Sharqning buyuk sivilizatsiyalari bir necha ming yillar davomida shakllandi. Sharqning sivilizatsiyalari insoniyatning kelajak madaniy, ma'naviy, siyosiy taraqqiyotining asoslarini yaratdi. Umuminsoniy qadriyatlarning huquqiy, madaniy-ma'naviy g'oyalarining asoslari ana shu sivilizatsiyalar bag'rida yotadi.

Sharq sivilizatsiyasi mil. avv. IV-III ming yilliklarda Old Osiyo (Osiyo so'zi ehtimol – ossur tilida sharq ma'nosini bildiradi), Hindiston, Xitoy, O'rta Osiyo va Eronda shakllandi.

«Qadimgi Sharq» geografik tushunchasi shimoli-g'arbiy Afrikadan Tinch okeanigacha va buyuk cho'llardan Hind okeani va Sahroyi Kabirgacha bo'lgan ulkan hududni qamrab oladi. Qadimgi Sharq deb shartli ataladigan bepoyon geografik hudud g'arbdan sharqqa qadimgi Karfagen joylashgan hozirgi Tunis-dan Xitoy, Yaponiya va Indoneziyagacha, janubdan shimolga hozirgi Efiopiyadan Kavkaz tog'lari va Orol dengizining janubiy qirg'oqlarigacha cho'zilib ketgan. Bu yerda qadimda mavjud bo'lgan ko'p sonli Sharq davlatlari insoniyat tarixida muhim rol o'ynaydi: Qadimgi Misr podsholigi, Bobil, Xett, Ossuriya davlatlari, Finikiya, Suriya va Kichik Osiyodagi shahar-davlatlar, Falastindagi, Eron tog' tizmasidagi kichik davlatlar, jumladan, Yaqin Sharq hududlarini o'z tarkibiga kiritgan qudratli Ahmoniyar davlati, O'rta Osiyodagi qator katta-kichik davlatlar, Hindiston, Xitoy, Koreya, Yaponiya va Janubi-Sharqiy Osiyo hududlaridagi davlatlar.

Insoniyat tarixi ibtidoiy jamoadan sivilizatsiyaga o'tishi shaharlarning paydo bo'lishi, ularning hokimiyat va diniy-madaniy markaz sifatida shakllanishi, ibodatxona va saroylar qurilishi, yozuvning va shuningdek, jamiyatda turli sinflar va davlatchilikning vujudga kelishi bilan boshlanadi. Insoniyat